



**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi Statistika  
agentligi direktori o‘rinbosari

Z. Ziyayev

2024-y. “ 28 ” *iyun*

## INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “ELEKTRON DO‘KON” BO‘LIMIDA QOG‘OZ SHAKLIDAGI STATISTIK NASHRLARGA BUYURTMA BERISH INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

#### 1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

##### 1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “Elektron do‘kon” bo‘limida qog‘oz shaklidagi statistik nashrlarga buyurtma berish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

##### 1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qog‘oz shaklidagi statistik nashrlar.

##### 1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-sayti, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlari.

##### 1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

##### 1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

##### 1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

##### 1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-saytiga, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlariga murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

## 1.7. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

## 2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

### 2.1. Axborot tarkibi va hajmi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik nashrlari ro'yxati:

- O'zbekiston raqamlarda;
- O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;
- O'zbekiston sanoati;
- O'zbekistonda transport va aloqa;
- O'zbekiston qishloq xo'jaligi;
- O'zbekistonda qurilish;
- O'zbekistonda savdo;
- O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami;
- O'zbekiston demografik yillik to'plami;
- O'zbekistonda mehnat va bandlik;
- O'zbekistonda kichik tadbirkorlik;
- Ayollar va erkaklar;
- O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari;
- O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat;
- O'zbekistonda narxlar;
- O'zbekistonda ta'lim;
- O'zbekistonda sog'liqni saqlash;
- Yillik statistik to'plam;
- O'zbekistonda turizm

### 2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qog'oz shaklidagi statistik nashrlar Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytining "Elektron do'kon" bo'limida e'lon qilib boriladi.

### 2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-81-71.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-81-37.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) elektron pochtasiga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF ) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9:00 dan 18:00 gacha yozma hujjatlarni odiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

#### **2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish**

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

#### **2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi nashrlar namunalari.

### **3. Xizmat ko'rsatish**

#### **3.1. Ish vaqti**

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytiga murojaat;  
Ish tartibi: onlayn rejimda.

#### **3.2. Kutish shartlari**

Nashrning bosma shakli belgilangan tartibda foydalanuvchi ko'rsatgan manzilga pochta orqali yuboriladi.

### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

#### **4.1. Shart bo'lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

#### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat pullik amalga oshiriladi.

#### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qog'oz shaklidagi statistik nashrlariga buyurtma berish uchun, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytiga kirish lozim. Saytning quyi qismidagi "Elektron do'kon" bo'limini tanlash kerak. Bo'limdagi "Bosma nashrlar" bo'limi orqali qiziqtirgan statistika nashrining muddati va turi tanlanadi. Tanlangan nashr bo'yicha to'lov amalga oshiriladi. Nashrning bosma shakli belgilangan tartibda foydalanuvchi ko'rsatgan manzilga pochta orqali yuboriladi.

#### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

1. Yil yakunlari bo'yicha statistika sohalari kesimida ma'lumotlarni tashkil etish;
2. Statistika dasturida belgilangan muddatlarda nashrlarni tayyorlash;
3. O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qog'oz shaklidagi statistik nashrlarni Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida e'lon qilish.

#### **4.5. Rad etish asosi**

Qog'oz shaklidagi statistik nashrlar adadi cheklangan bo'lib, qog'oz shaklidagi statistik nashrlar mavjud bo'lmaganda, nashrning DISK hamda elektron shakllari taklif etiladi.

### **5. Sifat ta'minoti**

### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

### **5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat**

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3. Qog‘oz shaklidagi statistik nashrlarga buyurtma berish bo‘yicha interaktiv xizmatini ko‘rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi <i>(yuridik yoki jismoniy shaxs)</i>	Statistika agentligining <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qog‘oz shaklidagi statistik nashrlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni agentlik saytiga, belgilangan muddatlarda, joylshirib boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida “Elektron do‘kon” bo‘limida “Bosma nashrlar” bo‘limidan qiziqtirayotgan statistik nashrni tanlaydi va belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshiradi.	O‘z xohishiga ko‘ra
4-bosqich	Statistika agentligi	To‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, tanlangan statistik nashrning kitob shaklini po‘chta orqali murojaatchi qayd etgan manzilga yuboradi.	3 ish kuni